

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI



TASDIQLAYMAN
Andijon davlat universiteti
Rektor A.S.Yuldashev
avgust 2023y.

5140600 – GEOGRAFIYA TA'LIM YO'NALISHI BITIRUVCHI
TALABALARI UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN YAKUNIY
DAVLAT ATTESTATSİYASI

D A S T U R I

Andijon – 2023

Dastur Andijon davlat universiteti o'quv - uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023 - yil "28"iyundagi "10" sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

g.f.n. dots. A.Isayev

g.f.n. prof. M.Mamajonov

kat.o'qt. M.Atajonov

kat.o'qt. M.Xabibullayeva



Maskur dastur fuqarolarning ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 apreldagi PF-6218-son farmoniga asoslangan.

Suhbat asosida o'qishga qabul qilish sinovlarida foydalilaniladigan fan asoslari

UMUMIY TABIIY GEOGRAFIYA

Geografiya fanining rivojlanishini asosiy bosqichlari

Ilk geografik bilimlarining paydo bo'lishi. Antik davrda geografiyaning rivojlanishi. Geografik g'oyalarining Aristotel, Eratosfen, Ptolemy ishlarida rivojlantirilishi. Geografiya fanining o'rta asrlarda rivojlanishi. Mazkur davrda geografiya fanining Sharq mamlakatlarida rivojlanishi (Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Bobur va boshq.). Buyuk geografik kashfiyotlarning geografiya fanining rivojlanishidagi ahamiyati. XIX asrda ilmiy geografiyaning rivojlanishi. Geografiya fanining hozirgi paytda rivojlanishi. Geografik qobiq, biosfera, geografik muhit ta'lomitlarining yaratilishi. O'zbekistonda geografiya fanining rivojlanishi.

Koinot, Quyosh sistemasi va Yer

Koinot haqida asosiy tushunchalar: Olam, Galaktika, yulduzlar, Quyosh sistemasi, Quyosh va sayyoralar. Yerning shakli, o'lchamlari va harakatlari. Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishining geografik oqibatlari.

Litosfera

Yer po'sti va uning tarkibi. Geoxronologik jadval. Asosiy tog' bo'lish bosqichlari. Platformalar, geosinklinallar. Yer yuzasining asosiy relief shakllari. Yer yuzasi tuzilishning asosiy xususiyatlari. Yer yuzasida quruqlik va suvning taqsimlanishi. Qit'a va materik tushunchasi. Materiklar, orollar, yarim orollar. Relief hosil qiluvchi asosiy jarayonlar. Endogen (ichki) va ekozen (tashqi) kuchlar tushunchalari. Quruqlik yuzasidagi asosiy relief shakllari – tekislik, pasttekislik, adirlar, qirlar, platolar, tog' tizmalari, tog' va yassi tog'lar. Tog' larning paydo bo'lishi va balandligiga ko'ra turlari. Cho'kma va botiqlar.

Gidrosfera

Gidrosfera haqida umumiy tushuncha. Uning tarkibiy qismlari. Suvning Yer sharida taqsimlanishi. Suvning aylanma harakati. Dunyo okeani va uning tarkibiy qismlari. Okean suvining xususiyatlari: harorati, va sho'rligi. Suvning harakatlari. Okean tubi refezi. Suvosti tog' tizmalari, kotlovinalar, suvosti cho'kmalari(novlar).

Quruqlikdagi suvlar. Yer osti suvleri: daryolar, ko'llar, botqoqliklar, muzliklar va muzloqlar. Xionosfera. Qor chizig'i. Qoplama muzliklar va ular hosil qilgan relief shakllari. Yer osti suvleri. Mineral va termal suvlar. Artezian suvleri.

Atmosfera

Atmosfera tushunchasi. Atmosferaning tarkibi. Atmosfera qatlamlari – troposfera, mezosfera, termosfera (ionosfera), ekzosfera. Ozon qatlami va uning Yer hayotida tutgan o'mni. Quyosh radiatsiyasi va uning Yer yuzasida taqsimlanishi. Havo harorati va uning dinamikasi. Havo bosimi. Past va yuqori bosim markazlari, siklon va antitsiklon tushunchalari. Shamollar, uning turlari, mahalliy va sayyoraviy shamollar. Havo massalari va frontlari. Atmosferadagi suvlari. Nisbiy va mutloq namlik. Bulutlar, ularning turlari. Yog'inxilar – yomg'ir, qor, do'il, shudring, tuman.

Ob-havo va iqlim. Ob-havo va uning elementlari. O'rGANISH usullari. Iqlim. Iqlim hosil qiluvchi omillar. Kontinental, dengiz, oraliq va musson iqlimlar, ularning muhim xususiyatlari. Iqlim mintaqalari.

Biosfera

Hayotning tarqalish chegerasi. Organizmlarning turlari va ularning vazifasi (faoliyat). "Ekologiya" fani haqida tushuncha. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish tushunchalari. O'simliklarning tekislik va balandliklar bo'yicha tarqalishi. Okeanlarning organik dunyosi (plankton, nekton, bentos). Biomassa. Nurash qobig'i. Tuproq qatlami va uning inson hayotida tutgan o'mni.

Tuproqlarning turlari, ularning Yer shari bo'yicha tarqalishi. Tuproq hosil qiluvchi omillar. O'zbekiston tuproqlari va ulardan foydalanishning ekologik jihatlari.

Geografik qobiqning harakatlari va ularning turlari

Geografik qobiqing issiqlik manbalari (ichki va tashqi). Geografik qobiqqa quyosh issiqligining kelishi. Modda va energiyaning aylanma harakati. Litosferadagi aylanma harakatlar. Mantiyada moddalar harakati, litosfera plitalari harakati. Tog' tizmalarining hosil bo'lishi. Geosinklinallarning rivojlanishi. Tog'larning ko'tarilishi va denudatsiya. Issiqliknинг aylanma harakati. Atmosfera harakatlari. Okean va quruqlik o'tasida issiqliknинг kundalik, fasliy va yillik aylanma harakati. Suvning aylanma harakati. Okeanda oqimlarning harakati. Geografik qobiqdagi davriy harakatlar. Geografik qobiqning bir butunligi va yaxltligi.

Geografik qobiqning rivojlanishi

Rivojlanish manbalari. Geosferalarning vujudga kelishi va rivojlanishi. Geografik qobiq tarkiblarning rivojlanishi (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera). Geografik qobiq rivojlanishining asosiy bosqichlari. Yerda hayotning paydo bo'lishi. Geografik qobiqning to'rtlamchi davrda rivojlanishi.

Jamiyat va geografik qobiq

Geografik qobiqning inson tomonidan o'zgarishi. Jamiat va tabiatning o'zaro ta'siri. Geografik muhit haqida tushuncha. Hozirgi ilmiy – texnik jadallashtirish va uning geografik

qobiqqa ta'siri. Atrof muhit monitoringi. Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish muammolari.

1. IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA

Inson geografiyasining fanlar tizimida tutgan o'mni, tadqiqot ob'ekti va predmeti.

Inson geografiyasining ichki tuzilishi va bu boradagi qarashlar. Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Geograflar o'tasida inson geografiyasining tadqiqot ob'ekti va predmeti, tushunchalari, mazmuni bo'yicha bahslar.

Inson geografiyasining shakllanishi

Inson geografiyasining fanlar tizimida tutgan o'mni. Uning boshqa fanlar bilan aloqalari. Inson geografiyasining ichki tuzilishi va bu boradagi qarashlar. Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Geograflar o'tasida inson geografiyasining tadqiqot ob'ekti va predmeti, tushunchalari, mazmuni bo'yicha bahslar.

Resurslar va landshaftlar.

Insonning atrof muhitga ta'siri va tabiatni muhofaza qilishning zarurligi. Djordj Perkins Marsh. Tabiiy resurslar va ularning klassifikatsiyasi (tasniflanishi). Global xom ashyo muammosi. Geografik determinizm va possibilizm. Nikolay Nikolaevich Baranskiyning inson va tabiat o'zaro munosabatlari muammolariga nisbatan nuqtai-nazari. XX asrning birinchi yarmida mintaqaviy tadqiqotlarning ko'payishi. Inson yoki ijtimoiy geografiyada landshaft.

Fanning tadqiqot usullari.

Tadqiqot usuli xaqida umumiy tushuncha. Kartografik, geografik taqqoslash, statistik va tarixiy metodlarning iqtisodiy geograflar uchun ahamiyati. Ijtimoiy geografiyada miqdoriy inqilob. Kuzatuv, modellashtirish, anketa-so'rov, ekstrapolyatsiya, tizim-tarkib usullari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni o'rGANISHDAGI roli. Hulq-atvor geografiyasining vujudga kelishi. Fanning ijtimoiylashuvi va ekologiyalashuvi.

Tarixiy geografiya

Yerda insonning tarqalishi. Tayyor ne'matlarni yig'ib oluvchi xo'jalikdan ishlab chiqarishga o'tish. Agrar inqilob va uning oqibatlari. Geografik mehnat taqsimotining shakllanishi. Osiyo, Afrika va Yevropa mamlakatlarida shaharlarning vujudga kelishi va ilk sivilizatsiyalarning shakllanishi. Buyuk Ipak yo'lining O'rta Osiyonning rivojlanishidagi roli. Jahan bozorining shakllanishi. Yevropa mamlakatlarida sanoat inqilobi va uning turli mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.

Aholi geografiyasi.

Aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning muhim va alohida tarmog'i ekanligi. Aholi geografiyasining tuzilishi. Aholi geografiyasining muhim tushunchalari. Aholi dinamikasi. Aholi

takror barpo bo'lishining an'anaviy tipi. Demografik portlash fenomeni. Aholi takror barpo bo'lishining zamonaviy tipi. Aholi sonining tez ko'payib borishi xavf soladimi?

Madaniy makon (madaniyat geografiyası).

Madaniyat mintaqaning muhim xarakteristikalaridan biri sifatida. Tillar geografiyası. Dinlar geografiyası. Madaniyat geografiyası va aholi. Yer shari aholisining etnik tarkibi. O'zbekiston aholisining etnik tarkibi. Jahonning yirik xalqlari. O'rta Osiyoning madaniy makoni.

Urbanizatsiya.

Shaharlar geografiyası inson, yoki iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning eng faol va yetakchi tarmog'i ekanligi. Urbanizatsiyaming tadrijiy o'zgarishlari. Shaharlar geografiyasini o'rganishdagi bosqichlar. Shaharlarning funksiyalari. Shahar va qishloq joylarida aholi sonining o'sish xususiyatlari. Urbanizatsiya jarayoni va uning "sharqona" ko'rinishi. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari. Shahar muammoli sohalardan biri sifatida. O'zbekistonda urbanizatsiyani geografik o'rganish.

Iqtisodiy geografiya.

Iqtisodiy geografiya inson geografiyasining muhim bir tarmog'i ekanligi. Iqtisodiy geografiyaning tuzilishi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, transport geografiyalari inson geografiyasining asosiy tarmoqlari sifatida. Xo'jalik tarmoqlari haqida tushuncha, ularning klassifikatsiyasi.

Sotsial geografiya.

Ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obekti va predmeti, fanlar tizimida tutgan o'mi. Ijtimoiy geografiyanı keng va tor ma'noda tushunish. Sotsial geografiyaga oid tadqiqotlar. Sotsial geografiyaning tarmoqlari. Ta'lim geografiyası, O'zbekiston ta'lim tizimi. Ayrim xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi. Tibbiyot geografiyası, uning tadqiqot ob'ekti va predmeti, ijtimoiy-geografik fanlar tizimida tutgan o'mi. Tibbiyot geografiyasining tuzilishi. Aholi salomatligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar. Aholi salomatligi va ekologiya. Jinoyatchilik geografiyası. Sotsial geografiyaning muhim vazifalari va muammolari.

Tibbiyot geografiyası.

Tibbiyot geografiyası, uning tadqiqot ob'ekti va predmeti, ijtimoiy-geografik fanlar tizimida tutgan o'mi. Tibbiyot geografiyasining tuzilishi.. Aholi salomatligi geografiyası. Nozogeografiya. OITS/OIV geografiyası. Tabiiy va ijtimoiy muhitning inson salomatligiga ta'siri. Iqlimning global isishi va kasalliklar geografiyası.

Siyosiy geografiya.

Siyosiy geografiya, uning ob'ekti va predmeti. Siyosiy geografiyaning inson geografiyası fanlari tizimidagi o'mni va aloqalari. Siyosiy geografiyaning shakllanish xususiyatlari va bunda g'arb olimlarining xizmatlari. Siyosiy geografiyaning tuzilishi. Siyosiy geografiya va geosiyosat. Ularning o'zaroaloqadorligi va rivojlanish xususiyatlari.

Geografik tuzilmalar va geografik jarayonlar

Xagget P. bo'yicha hududiy tizimlarni o'rganishning elementlari. Oqimlar va kommunikatsiyalar. Tugunlar va ierarkhiya. Areallar. Hududiy (prostranstvennye) modellar. Iogann Tyunen modeli. Valtera Kristaller va Avgust Lyoshlarning "Markaziy joylar" modeli. Boshqa hududiy modellar. Geografik mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning shakllanishi. Halqaro va rayonlararo mehnat taqsimoti. Iqtisodiy geografik o'rinni. Aholi migratsiyasi jarayonlari va uning sabablari. Hozirgi zamon halqaro aholi migratsiyasining geografik manzarasi. Globalizatsiya jarayonlari.

Inson geografiyası va ekologiya.

Ekologiya, uning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bilan aloqasi, asosiy vazifalari. Umumiy ekologiyadan ijtimoiy ekologiyaga. Ijtimoiy ekologiyaning shakllanishi va rivojlanishi. Ekologik barqorar rivojlanish konsepsiysi. Iqlimni saqlash muammosi. Iqlimni shakllantiruvchi omillar. Tabiiy va kuchaygan parnik effekti. Iqlim muammolari bo'yicha halqaro kelishuvlar. O'zbekistonda iqlim o'zgarishlari.

Insoniyatning global muammolari

Global muammo nima? Jahonning global muammolari va ularning yechimi. Iqlim o'zgarishlari muammosi. Xomashyo va energetika muammosi. Okean resurslaridan foydalanish muammosi.

2. JAHON GEOGRAFIYASI

1-bo'lim. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyası

Yevrosiyo

Materiklar, qit'alar, orollar, yarimorollar, okeanlar, dengizlar, qo'ltiqlар va bo'g'ozlar haqida umumiyl tushuncha. Yevrosiyoning asosiy xususiyatlari (maydonining kattaligi, shimoldan janubga cho'zilganligi va shimoliy yarim shardagi hamma geografik mintaqalarning namoyon bo'lganligi. Relefining juda xilma-xilligi, quruqlikning eng baland va past nuqtalarining shu materikda joylashganligi va boshq.). Siyosiy xaritasi va asosiy xalqlari. Materikning shakllanish tarixi. Qadimgi platformalar, kaledon, gersin va alp burmalanish bosqichlarida hosil bo'lgan geologik tuzilmalar va ularning relefda aks etishi. Relefining asosiy shakllari. Vulqonli oblastlar. Foydalı qazilmalari. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Ichki suvlari. Yevrosiyoning tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi. Geografik mintaqalari va tabiat zonalari. Yevrosiyoning yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: Shimoliy Yevropa, Markaziy Yevropa, Janubiy Yevropa, Sharqiy Yevropa, G'arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Uzoq Sharq, Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubi-g'arbiy Osiyo, Old Osiyo (har bir regional tabiiy geografik o'lkaning umumiy tabiiy geografik tasnifi: geografik o'mni, tektonikasi va

geologik tuzilishi, foydali qazilmalari va relefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi, tabiatiga inson faoliyatining ta'siri yoritiladi).

Shimoliy Amerika

Tabiiy geografik xususiyatlari. Shakllanish tarixi. Materikning tarkib topishidagi asosiy bosqichlar. Shimoliy Amerika platformasi, kaledon, gersin, kimmeriy, laramiy va Alp burmalanishi oblastlari va ularning relefdagi aks etishi. Foydali qazilmalarini joylanish qonuniyatlarini va ulardan foydalananish darajasi. To'rtlamchi davr muzliklarining relief shakllarini hosil bo'lishidagi ahamiyati. Asosiy relief shakllari.

Iqlimi. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Atrofidagi okeanlarning materik iqlimiga ta'siri. Iqlimni fasllar bo'yicha almashinishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'rifi. Ichki suvlari. Daryo turlari, yirik daryolar ta'rifi. Ko'llar va ularning kelib chiqishi. Suv resurslari.

O'simligi, tuproqlari va hayvonot dunyosi. O'simliklarining kelib chiqish markazlari va hozirgi o'simlik qoplaming shakllanish tarixi. Tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining tarqalish qonuniyatlarini. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish masalalari. Milliy bog'lar, qo'riqxonalar va alohida qo'riqlanadigan joylar.

Geografik mintaqalar va tabiat zonalari, ularning joylanishining o'ziga xos xususiyatlari. Kordilera tog'laridagi balandlik mintaqalari. Landshaftlar va ularning inson tomonidan o'zlashtirilishi. Yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: Kordilera tog'ları, Kordilera tog'laridan tashqaridagi sharq.

Kordilera tog'laridan tashqaridagi sharq quydagi kichik regional o'lkalarga ajratiladi: Grenlandiya, Kanada-Arkтика to'plam orollari, Lavrentiya qirlari, Markaziy tekisliklar, Buyuk tekisliklar, Appalachi tog'ları, qirg'oq bo'yи tekisliklar. Kordilera tog'ları quydagi kichik o'lkalarga ajratiladi: Alyaska Kordilerasi, Kanada Kordilerasi, Janubiy Kordilera, Meksika tog'ligi.

Janubiy Amerika

Geografik joylanishi, qiyofasi, o'lchamlari va tabiatining asosiy xususiyatlari, Shimoliy Amerika materigi bilan o'xshashligi va farqlari.

Shakllanish tarixi, relefi va foydali qazilmalari. Janubiy Amerika platformasi, kaledon, gersin, mezozoy va Alp burmalanishi oblastlari. Sharqiy qismidagi yassi tog'lar va tekislik, pasttekisliklar. And burmalanish oblasti. Iqlimi. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Atrofidagi okeanlarning iqlimga ta'siri. Iqlimning fasllar bo'yicha almashinishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'rifi. Ichki suvlari. Asosiy daryolar, ularning ta'rifi. Ko'llari. Suv resurslari.

Tuproq, o'simlik qoplami va hayvonot dunyosining asosiy xususiyatlari. Zoogeografik oblastlari. Geografik mintaqalari va zonalari. And tog'laridagi mintaqalar.

Yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: And tog'ları, And tog'laridan tashqaridagi sharq.

And tog'laridan tashqaridagi sharq quydagi kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratiladi: Gviana yassi tog'ligi, Amazonka pasttekisligi, Braziliya yassi tog'ligi.

Afrika

Materik geografik o'mining asosiy xususiyatlari. Shakllanish tarixi, relefi va foydali qazilmalari. Afrika platformasi va uning relefdagi aks etganligi. Baland va past Afrika. Shimoliy Afrika cho'llari. Buyuk Afrika yoriqlari. Paleozoy va burmalanish oblastlari va ularning relefdagi aks etishi. Rudali foydali qazilmalarning baland Afrikada, neft, gaz, fosforit konlarining past Afrikada joylashganligi.

Iqlimi. Iqlimini hosil qiluvchi asosiy omillar. Yoz va qish fasllarida harorat, namlik va yog'inning taqsimlanishi. Iqlim mintaqalarining takrorlanishi (ekvatorial mintaqadan tashqari). Hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlari. Tuproqlari va ularning hosil bo'lish jarayoni. Cho'llanish muammosi va uni yechish yo'llari. Asosiy qo'riqxonalar. Geografik mintaqalari va tabiat zonalari, ularning tavsifi.

Yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: Past Afrika, Baland Afrika.

Past Afrika quydagi kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratiladi: Atlas tog'ları; Sahroi Kabir.

Baland Afrika quydagi kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratiladi: Sharqiy Afrika; Janubiy Afrika.

Avstraliya

Janubiy yarim sharda joylashganligi, o'lchamlari, o'ziga xos xususiyatlari. Tarkib topish tarixi, relefi va foydali qazilmalari. Avstraliya platformasining tuzilishi va uni relefdagi aks etganligi (g'arbiy Avstraliya yassi tog'ligi, Markaziy tekislik), paleozoy burmalanish mintaqasi (Sharqiy Avstraliya tog'ları). Hozirgi vaqtidagi relief hosil qiluvchi omillar. Rudali foydali qazilmalar, oltin mintaqasi, neft-gaz va ko'mir havzalari.

Iqlimi va ichki suvlari. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Namlik va yog'inni taqsimlanishi. Iqlim mintaqalari. Daryolari. "Kriklar", sho'r ko'llar, yer osti suvlari (artezian havzalari).

Geografik mintaqalari va tabiat zonalari. Regional tabiiy geografik o'lkalari: G'arbiy Avstraliya, Markaziy tekislik va Sharqiy Avstraliya tog'ları.

Okeaniya

Geografik joylanishi. Tabiatning asosiy xususiyatlari. Geologik tuzilish va relefi. Mezozoy va kaynozoy burmalanish mintaqalari va janubi-g'arbiy Okeaniya orollarining hosil bo'lishi. Vulqonlar otishishi. Mikroneziya va Polineziya orollarining hosil bo'lishi. Tropik mintaqalarda okean sathining o'zgarishi va marjon orollarining hosil bo'lishi. Asosiy relief shakllari. Foydali qazilmalari.

Iqlimi va ichki suvlari. Havo massalari va ularning harakati, harorat, yog‘inlar, tropik siklonlar.

Tuproq-o‘simlik qoplamasi va hayvonot dunyosi. Tuproqlarning, o‘simliklarning asosiy turlari. Hayvonot dunyosining o‘ziga xos xususiyatlari.

Tabiiy geografik o‘lkalar: Melaneziya, Mikroneziya, Polineziya, Yangi Zelandiya.

Antarktida

Qutb doirasi ichida joylashgan yagona materik ekanligi. Tabiatning asosiy qirralari, o‘chamlari, shakllanish tarixi. Muz ustii va osti relefi. Muzning qalinligi. Shelf muzliklari “Vohalar”. Iqlimining o‘ziga xos xususiyatlari. O‘simlik va hayvonot dunyosi. G‘arbiy Antraktida, Sharqiy Antraktida. Ularning umumiy tabiiy geografik tasnifi.

2-bo‘lim. Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiysi

Dunyoning hozirgi zamon siyosiy xaritasi, jahon mamlakatlarining sotsial-iqtisodiy guruhlari

Dunyoning siyosiy xaritasi va uning shakllanish xususiyatlari. Jahon mamlakatlarining umumiy ta’rifi, hududi va aholi soni. Mamlakatlarning davlat tuzumi. YaIM bo‘yicha mamlakatlar tavsiyi. Davlatlarning tiplari. O‘tish iqtisodiyoti, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar. Anklav va eksklav mamlakatlar.

Jahon tabiiy resurslari geografiyası. Ekologik muammolar

Jahon tabiiy resurslarining turlari. Agroqlim resurslari. Yer-suv resurslari. Gidroenergetika resurslari. Foydalı qazilmalar geografiyasi. Dunyo okeani resurslari. Tabiat-jamiyatning o‘zar ta’siri va uning oqibatlari. Jahon va uning mintaqalarida geoekologik muammolar.

Jahon aholisi

Jahon aholisi soni va o‘sishi. Aholi zichligi va joylashuvi. Aholi takror barpo bo‘lishi. «Demografik portlash» va uning oqibatlari. Dunyo mintaqalarida demografik o‘tish davriming xususiyatlari. Dunyoning turli mintaqalaridagi asosiy demografik ko‘rsatkichlar. BMTning demografik prognozi. Zamonaviy xalqaro migratsiya va uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish, ishsizlik muammosi.

Jahon urbanizatsiyasi

Urbanizatsiya va unga ta’sir etuvchi omillar. Shahar va qishloq aholisi. Jahon urbanizatsiyasining mintaqaviy xususiyatlari. Suburbanizatsiya. Dunyoviy shaharlar, yirik aglomeratsiyalar, megalopolislari. Poytaxt shaharlar va ularning iqtisodiy salohiyati.

Xalqaro mehnat taqsimoti va unga ta’sir etuvchi omillar

Xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi. Hududiy mehnat taqsimoti. Xalqaro va rayonlararo mehnat taqsimoti. Xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo‘jaligining shakllanishi.

Jahon xo‘jaligi

Jahon xo‘jaligi va uning tarmoqlar tarkibi. Jahon xo‘jaligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi sanoat inqilobining dunyo mintaqalari iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri.

Hozirgi zamona rivojlanayotgan mamlakatlari iqtisodiyotining yuqori su’atda o’sishiga ta’sir etuvchi omillar.

Jahon sanoati

Sanoatni hududiy tashkil etish omillari. Xomashyo, energetika, mehnat resurslari, transport va ekologik omillar. Jahon sanoatining tarmoqlar tarkibi. Jahon energetika sanoati. Jahon neft zahirasi va unii qazib olish. Gaz sanoati. Ko‘mir sanoati geografiyasi. Jahonda elektroenergiya ishlab chiqarish. Qora va rangli metallurgiya. Po‘lat ishlab chiqarish va eksport qilish. Rivojlangan mamlakatlarda fantalab mashinasozlik sanoatining mujassamlashuvi. Avtomobilsozlik. Kimyo sanoati. O‘rmon sanoati. Yengil sanoat. Oziq-ovqat sanoati.

Jahon qishloq xo‘jaligi

Qishlok xo‘jaligi tarmoqlari. Dehqonchilik:donli ekinlar, texnika ekinlari, moyli ekinlar, sabzavotchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik.

Chorvachilik. Qoramchilik. Cho‘chqachilik. Qo‘ychilik. Parrandachilik.

Fan-texnika inqilobining jahon qishloq xo‘jaligiga ta’siri. Intensiv va ekstensiv qishloq xo‘jaligi. Global oziq-ovqat muammosi.

Jahon transporti

Transportning turlari. Mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarda transportning tutgan o‘rn. Jahon transportining yuk tashish tarkibi. Dengiz transporti. Globallashuv jarayonlari va unda transportning ahamiyati.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv jarayonlari

Globallashuv jarayonlari. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning turlari. Erkin iqtisodiy zonalar. Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Integratsiya birlashmalarida O‘zbekistonning ishtiroki. Transmilliy kompaniyalar geografiyasi. Dunyoning yirik iqtisodiy-ijtimoiy va geosiyosiy mintaqalari.

Yevropa mamlakatlari

Yevropa siyosiy xaritasi, uning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rn. Subregionlari. Yirik davlatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

Germaniya. Iqtisodiy geografik o'mi, tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi va mehnatda bandlik. Iqtisodiyoti. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Birlashgan Germanyaning iqtisodiy rivojlanish muammolari va istiqbollari. Ichki tafovutlari.

Buyuk Britaniya. Iqtisodiy geografik o'mi, tabiiy sharoiti va mineral resurslari. Ularning mamlakat xo'jaligini rivojlantirishdagi ahamiyati. Sanoatining rivojlangan tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Fransiya. Mineral resurslarini xo'jalikda tutgan o'mi. Aholisi va mehnat resurslari. Sanoat ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi va hududiy tarkibi xususiyatlari. Fransiya va O'zbekiston iqtisodiy munosabatlari.

Italiya. Iqtisodiy geografik o'mining o'ziga xosligi. Aholisi va mehnat resurslari. Iqtisodiyoti. Turizmni mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati. Ichki tafovutlari. O'zbekiston - Italiya hamkorligi.

MDH va Sharqiy Yevropa davlatlari

Sharqiy Yevropaning o'tish iqtisodiyoti davlatlari. Tabiiy, mineral xom ashyo, demografik, geosiyosiy, transport-kommunikatsiya va ishlab chiqarish salohiyati. Rossiya iqtisodiy geografik tavsif.O'zbekistonga qo'shni MDH tarkibidagi mamlakatlar: Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston.

Osiyo mamlakatlari

Sharqi Osiyoning rivojlangan davlatlari. Yaponianing jahon ilmiy-teknika taraqqiyotida tutgan o'mi. Janubiy Koreyaning iqtisodiy rivojlanishi. Xitoy iqtisodiyoti.

Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari. Osiyoning yangi industrial mamlakatlari.

Janubiy Osiyo. Hindiston. Iqtisodiy geografik o'mi va tabiiy resurslari. Aholisi. Xo'jaligi. O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi.

Shimoliy Amerika davlatlari

AQSh. Iqtisodiy geografik o'mi. Sanoat tarmoqlari va ularning joylashuvi. Qishloq xo'jaligi. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Iqtisodiy rayonlari. AQSh-O'zbekiston hamkorligi.

Kanada. Iqtisodiy geografik o'mi va tabiiy resurslari. Aholisi. Mamlakat xo'jaligida o'rmon va yog'ochsozlik sanoatining ahamiyati. Qishloq ho'jaligi. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Janubiy Amerika davlatlari

Tabiiy resurslari. Aholisi. Iqtisodiyotining rivojlanishi. Braziliya. Iqtisodiy geografik o'mi va tabiiy resurslari. Aholisi va xo'jaligi. Ichki tafovutlari.

Afrika davlatlari

Iqtisodiy geografik o'mi. Xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'mi. Xo'jaligidagi o'ziga xos xususiyatlari. Sanoat tarmoqlari va ularning joylashuvi. Qishloq xo'jaligi. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Shimoliy Afrika davlatlari. Janubiy Afrika Respublikasi.

Avstraliya va Okeaniya

Makroiqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'mi. Xo'jaligidagi o'ziga xos xususiyatlari. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi. Chorvachilik.

Okeaniya davlatlari rivojlanishining asosiy muammolarini.

3. O'ZBEKISTON GEOGRAFIYASI

1-bo'lim. O'zbekiston tabiiy geografiyasi

O'zbekiston tabiatini shakllantiruvchi omillar

O'zbekistonning geografik o'mi, chegaralari, maydoni. Eng muhim landshaft-geografik xususiyatlari. O'zbekiston tabiatini o'rganilish tarixidan.

Tektonikasi va geologik tarixi

Yer po'stining hozirgi kundagi harakatlari. Zilzilalar. O'zbekistonning seysmik rayonlari. Orografik tuzilishi.

O'zbekiston iqlimi

O'zbekiston iqlimiga umumiy tafsif. Landshaftlarning shakllanishida muhim o'rinn tutuvchi iqlim hosil qiluvchi omillar tahlili. Iqlim mintaqalarini va zonalarining shakllanishi. Havo haroratining taqsimlanishi. Termik resurslari va ularning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Qur qoplami. Shamollar va ularning turlari.

O'zbekistonning ichki suvlari

Umumiy gidrologik tafsif. Daryolarning to'yinishiga ko'ra tiplari. Daryolar, ko'llar, muzliklar va ularning geografik taqsimlanishi. Orol muammosi. Asosiy kanallar va suv omborlari, ularning ahamiyati. Suv boyliklaridan oqilona foydalanish. O'zbekiston hududining yer osti suvlari.

Tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi

O'zbekiston tuproqlari, ularning xususiyatlari. Yer resurslari, ularning holati va ulardan oqilona foydalanish.

O'simliklarining ekologik va geografik xususiyatlari. O'zbekistonning cho'l, adir, tog', yaylov o'simliklari va ularning xo'jalikdagi ahamiyati, muhofazasi.

O'zbekiston hayvonotining landshaft zonalari bo'ylab tarqalishi. O'zbekiston hayvonotini muhofaza qilish muammolari.

O'zbekistonda tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish

O'zbekistondagi ayrim regional va mahalliy geoekologik muammolar va ularning yechimi. Noyob landshaftlar va tabiat yodgorliklari muhofazasi. Qo'riqxonalar, milliy bog'lar, buyurtmalar.

Regional qism

O'zbekistonni tabiiy-geografik rayonlashtirish.

O'zbekistonni tabiiy-geografik rayonlashtirish. Mayjud rayonlashtirish sxemalarining tahlili. O'zbekistonning o'quv maqsadlariga moslashtirilgan tabiiy-geografik rayonlashtirish sxemasi.

Tekislik kichik provinsiyasi.

Ustyurt okrugiga tabiiy geografik tavsif. Quyi Amudaryo okrugiga tabiiy geografik tavsif. Qizilqum okrugiga tabiiy geografik tavsif. Quyi Zarafshon okrugiga tabiiy geografik tavsif.

Tog' oldi va tog' kichik provinsiyasi.

O'rta Zarafshon okrugiga tabiiy geografik tavsif. Qashqadaryo okrugiga tavsif. tabiiy geografik Surxondaryo okrugiga tabiiy geografik tavsif. Mirzacho'l okrugiga tabiiy geografik tavsif. Chirchiq-Ohangaron okrugiga tabiiy geografik tavsif. Farg'onha okrugiga tabiiy geografik tavsif.

2-bo'lim. O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyası

O'zbekistonning jaxon siyosiy xaritasidagi o'rni, ma'muriy-hududiy bo'linishi

O'zbekiston Respublikasining geografik va siyosiy geografik o'mi, maydoni va chegaralari. Uning mamlakatni tarixiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liqligi. O'zbekiston Respublikasining makrogeografik, mezogeografik va mikrogeografik tutgaa o'mi va roli. Mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmasi.

O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari, ularning xo'jalik ahamiyati

O'zbekistonning yer yuzasi tuzilishi va mineral resurs salbohiyati. Iqlimi va suvlari. Agroqilim resurslari va ularning xo'jalik ahamiyati. Kanallar va suv omborlari, ulardan foydalananining hozirgi ahvoli. Yer fondi va uning tarkibiy tuzilishi. O'zbekistonning hayvonot va o'simlik dunyosi, ularning xo'jalik ahamiyati.

O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari, mehnat bozori

Aholi soni va uning tadrijiy o'zgarishlari. Mamlakat aholisining joylashuv xususiyatlari. Aholi sonining o'sishi va joylashuviga ta'sir qiluvchi omillar. Respublika aholisining tabiiy va mexanik xarakati, ularning mintaqaviy xususiyatlari. Aholining jins-yosh, milliy va ijtimoiy tarkibi. Shahar va qishloq aholisi. Urbanizatsiya va uning regional xususiyatlari.

Mehnat resurslari va ulardan foydalanan. Mehnat bozori va uning hududiy jihatlari.

O'zbekiston Respublikasi xo'jaligining umumiy tavsifi

Milliy iqtisodiyotning shakllanishi xususiyatlari. Uning tarkibiy tuzilishi va rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari. Mamlakat xo'jaligining ixtisoslashuvi va uning mintaqaviy xususiyatlari. Asosiy ixtisoslashgan tarmoqlari.

O'zbekiston sanoati. Yoqilg'i-energetika majmuasi

Sanoatning tarmoqlar tarkibi. Yoqilg'i-energetika majmuasi, uning iqtisodiyotda tutgan o'mi. Yoqilg'i sanoatining tarmoqlari. Ko'mir, neft va gaz sanoati. Yoqilg'i sanoati korxonalarining joylanishi xususiyatlari. O'zbekistonda ko'mir, neft, tabiiy gaz qazib olish.

Elektr-energetika sanoati. Elektr stansiyalar va ularning turlari, joylashuvi xususiyatlari. GidroelektrstanSSiyalar va issiqqlik elektrstansiyalar. Elektr energiya ishlab chiqarishning tadrijiy o'zgarishlari.

Sanoat markazlari, sanoat tugunlari, sanoat rayonlari. Muqobil energiya resurslaridan foydalananish masalalari. Energiya ishlab chiqarish sikllari.

Metalluriya sanoati

O'zbekiston metalluriya majmuasi va uning tuzilishi. Qora va rangli metalluriya sanoati. ularning korxonalarini joylashuvi xususiyatlari, xomashyo bazasi, mahsulot ishlab chiqarish. Metalluriya sanoati geografiyası.

Kimyo sanoati

O'zbekistonda kimyo sanoatining shakllanishi va rivojlanishi. Uning tarmoqlar tarkibi. Kimyo, neft kimyosi, mineral o'g'itlar, sintetik tola ishlab chiqarish, kimyo-farmatsevtika, lok-bo'yq va boshqa tarmoqlar, ularning joylanishi. Kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish va uning hududiy tuzilishi.

Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati

Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'mi. Uning tarkibiy tuzilishi. Transport, traktor va qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, stanoksozlik, asbobsozlik, elektrotexnika mashinasozligi. Mustaqillik davrida mashinasozlikning rivojlanishi. Avtomobilsozlik va uning geografiyası. Mashinasozlik majmuasida mahsulot ishlab chiqarishning tarmoqlar va hududiy xususiyatlari.

Qurilish materiallari, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi. Uning yirik korxonalarini joylanishi. Qurilish materiallari ishlab chiqarishning tadrijiy va hududiy tarkibi. O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati rivojlanishining imkoniyatlari.

Yengil va oziq-ovqat sanoati

O'zbekistonda yengil va oziq-ovqat sanoati shakllanishi va rivojlanishining omillari. Tarmoqlar tarkibi. Yengil sanoatning to'qimachilik, tikuvchilik, trikotaj, poyabzal, oziq-ovqat

sanoati tarmoqlarining rivojlanishi. Yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishning mintaqaviy xususiyatlari.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi

Qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va roli. O'zbekiston qishloq xo'jaligiga umumiy tavsif. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari haqida tushuncha. Dehqonchilik. Chorvachilik va uning ixtisoslashuvi. Respublika agrosanoat majmuasi. Mustaqillik yillarda agrar islohotlar.

O'zbekiston yer-suv resurslaridan foydalanish. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi. Irrigatsiya va melioratsiya .

Dehqonchilik

Dehqonchiliking qishloq xo'jaligi va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni. Tarmoqlar tarkibi va rivojlanishi xususiyatlari. Texnika ekinlari (paxta, tamaki, kanop), g'allachilik, bog'dorchilik-uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik, moyli ekinlar va yem-hashak ekinlari yetishtirish. Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va mahsulot yetishtirishning mintaqaviy xususiyatlari. Dehqonchilik rayonlari.

Chorvachilik

Chorvachiliking respublika xo'jaligidagi ahamiyati. Chorvachilik tarmoqlarining joylashuviga ta'sir etuvchi omillar. Chorvachilikni tarmoqlar tarkibi. Qoramolchilik, qo'ychilik va echkichilik, qorako'lchilik, parrandachilik, cho'chqachilik, baliqchilik, pillachilik va boshqa tarmoqlar. Chorvachilik rayonlari Sut-go'sht, go'sht-sut va jun chorvachiligi. Chorva hayvonlari bosh soni va chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi.

Ijtimoiy sohalarning rivojlanishi

Ijtimoiy sohalarning tuzilishi va rivojlanish xususiyatlari. O'zbekiston ta'lif tizimi. Sog'liqni saqlash tizimi va uning rivojlanishi. Aholiga xizmat ko'rsatish. Rekreatsiya resurslari va rekreatsiya geografiyasi. O'zbekistonda turizmning rivojlanishi, turizm geografiyasi.

O'zbekiston transporti va tashqi iqtisodiy aloqalarini geografiyasi

O'zbekistonda milliy transport tizimining tarixiy tarkib topishi va rivojlanishi. Transportning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati. Transportda yuk va yo'lovchi tashish geografiyasi. O'zbekistonning savdo-iqtisodiy aloqalarida transportning roli. Respublikaning transport majmuasi. Transportning turlari. Temir yo'l, avtomobil, quvur, havo, daryo transporti.

Mustaqillik yillarda mamlakat transportining rivojlanishi, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimlariga chiqish imkoniyatlari.

Regional qism

O'zbekiston Respublikasi xo'jaligining hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlari.

Iqtisodiy rayonlashtirishning nazariy va amaliy ahamiyati, uning respublika xo'jaligini rivojlanitarish rejalar bilan bog'liqligi. Iqtisodiy rayon hosil qiluvchi omillar.

O'zbekiston iqtisodiy rayonlari. Toshkent iqtisodiy geografik rayoniga tavsif. Farg'on a iqtisodiy geografik rayoniga tavsif. Zarafshon iqtisodiy geografik rayoniga tavsif. Janubiy iqtisodiy geografik rayoniga tavsif. Mirzacho'l iqtisodiy geografik rayoniga tavsif. Quyi Amudaryo iqtisodiy geografik rayoniga tavsif.

SUXBAT IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

Ikkinci mutaxasislar uchun suxbat 5 baholik tizimda baholanadi. Ikkinci mutaxasislar uchun suxbat kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga to'rttadan nazariy savol kiritiladi.

Subbat asosidagi imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

Quyidagi holatlarda abituriyentga 5 («a'lo») baho qo'yiladi:

-barcha savollarga to'liq javob bersa;

-xatolarga yo'll qo'ymasa;

-javobi ilmiy va mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'lsa;

-fikrlar asosli va faktik ma'lumotlarga asoslangan bo'lsa;

Quyidagi holatlarda abituriyentga 4 («yaxshi») baho qo'yiladi:

to'rtta savolga javob berish jarayonida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa
- ayrim juz'iy noaniqliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa:

- o'z fikrini asoslashda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'ysa:

-bildirilgan fikrlar faktik ma'lumotlarga asoslanib berilsa:

Quyidagi holatlarda abituriyentga 3 («o'rta») baho qo'yiladi:

to'rtta savolga javob berish jarayonida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa:

- ayrim juz'iy noaniqliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa:

- o'z fikrini asoslashda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'ysa:

- fikrlar asosli , lekin faktik ma'lumotlarga asoslanmagan bo'lsa:

Quyidagi holatlarda abituriyentga 2 («qoniqarsiz») baho qo'yiladi:

- barcha savolga ham to'g'ri javob bera olmasa;

- barcha savollarga berilgan javoblar noto'g'ri va asossiz bo'lsa;

suhbat asosidagi imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Suhbat asosidagi imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

«Geografiya» ta'lif yo'naliishi bo'yicha suhbat asosidagi imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafer a'zodan kam bo'limgan holda tashkil etiladi.

Suhbat asosidagi imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

«Geografiya» ta'lif yo'naliishi bo'yicha suhbat asosidagi imtihon natijalaridan norizo abituriyentlarning murojaatlарини ko'rib chiqish bo'yicha appellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelatsiya komissiyasi suxbat asosida o'tkazilgan imtihon komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yilishi bilan bir paytda 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abiturient suxbat imtihon natijalari e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat ichida appellatsiya komissiyasiga murojaat etishi shart. Aks holda ko'rsatilgan muddatdan o'tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Appelatsiya komissiyasi abiturientlar tomonidan bildirilgan og'zaki va yozma murojaatlarga javob beradi.

Abiturient tomonidan bildirilgan murojaatni ko'rib chiqadi va 24 soat ichida xulosalarni ma'lum qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdunazarov O.O., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh. M., Ibragimova R.A., Ibraimova A.A. Umumi tabiiy geografiya. Darslik.-Toshkent. 2019
2. Vahobov H. Umumi Yer bilimi. Darslik. -T.: Bilim, 2005.
3. Goudie A. Physische Geographie. Germany, 2002.
4. Savsova T.M. Obshchee zemlevedenie. -M.: Akademiya, 2003.
5. Robert E.Gabler, James F.Petersen, L.MichaelTrapasso. Essentials of Physical Geography. USA, 2007.
6. World Regional Geography (This text was adapted by The Saylor Foundation under a Creative Commons Attribution-NonCommercial-ShareAlike 3.0 License without attribution as requested by the work's original creator or licensee). www.saylor.org/books.
7. Bokov V.A., Seliverstov Yu.P., Chervanov I.G. Obshchee zemlevedenie.- SPb.:1999.
8. Savsova T.M. Obshchee zemlevedenie. -M.: Akademiya, 2003.
9. Peter Haggett. Geographie: Eine Globale Synthese. Verlag Eugen Ulmer, Stuttgart 2004.
10. Soliev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodlar va amaliyat. – T.: Kamalak, 2013.
11. Soliev A.S., Mahamadaliev R. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. – T., 2005.
12. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya. Osnovi nauki. – M.: Vlados, 2003.
13. Vlasova T.V. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. -T.: 1985, I, II jild.
14. Yermakov Yu.G., Ignatev G.M. i dr. Fizicheskaya geografiya materikov i okeanov. – M.: Vysshaya shkola, 1988
15. Fizicheskaya geografiya mirovogo okeanov. -M.: Izd-vo MGU, 1998.
16. Boltaev M.J. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
17. Lipets Yu. G. Pulyarkin V. A., Shlixter S. B. Geografiya mirovogo xozyaystvo. – M., 1999
18. Sotsalno-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira. pod red. V.V.Volskogo. – M., 2003.
19. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya stran blijnego zarubejya. Pod red. M.Ratanova. – M., 2004.
20. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – T., O'qituvchi, 1996.
21. Hasanov I. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (ma'ruzalar matni). – T., O'zMU, 2000.
22. Hasanov I., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (1-qism). O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2007.
23. Hasanov I., G'ulomov P.N., Qayumov A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (2-qism). O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2010.
24. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofisi. -T.: "O'qituvchi", 1994.
25. Soliev A. O'zbekiston geografiyasi. – T.:Universitet, 2014.
26. Soliev A va boshqalar Mintaqaviy iqtisodiyot. – T., 2003.
27. Soliev A., Nazarov M., Qurbanov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: "Mumtoz so'z", 2010.
28. Vahobov H., Zaynudinov A. Geografiya o'qitish metodikasi. 1-qism Ma'ruzalar matni. - T.: Universitet, 2000.
29. Metodika obucheniya geografii v sredney shkole. Pod. red. L.M.Pancheshnikovoy. -M.: Prosveshenie, 1983.
30. Qurban niyozov R. Geografiya ta'limi metodikasi. -T.: Universitet, 1992.
31. Qurban niyozov R. Geografiya ta'limi metodikasi. -Urganch, 2002.
32. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. T.: TDPU, 2013.